

Andijon viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

2025- yil yanvar-dekabr


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yilning yanvar-dekabr oylaridagi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **53 969,6** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda **14,7** % ga oshdi.

Ma'lumot uchun: 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlar hajmi **43 233,1** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda **13,1** %ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
yanvar-dekabr, mlrd so'mda ¹



II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **24,7** %, ya'ni **13 343,2** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda ushbu hududda **18,8** %ga oshgan. Andijon shahridan tashqari, tumanlar kesimida eng yuqori hajm Asaka (**2 476,8** mlrd so'm, ya'ni, bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,6** %ini egalladi), Andijon (**2 170,0** mlrd so'm, **4,0** %) va Shahrixon tumanlarida (**2 005,8** mlrd so'm, **3,7** %) kuzatildi. Ulug'nor tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **500,1** mlrd so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **0,9** %ini tashkil etdi.

¹ 2023-2025- yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari

2025- yil yanvar–dekabr

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	53 969,6	100,0	114,7
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	13 343,2	24,7	118,8
Xonobod sh.	883,2	1,6	118,0
Oltinko'l	1 507,3	2,8	116,2
Andijon	2 170,0	4,0	117,3
Baliqchi	1 888,0	3,5	115,0
Bo'ston	585,9	1,1	117,5
Buloqboshi	1 097,8	2,0	115,8
Jalaquduq	1 587,1	2,9	118,6
Izboskan	1 750,4	3,2	118,5
Ulug'nor	500,1	0,9	116,1
Qo'rg'ontepa	1 715,6	3,2	116,7
Asaka	2 476,8	4,6	116,0
Marhamat	1 417,8	2,6	115,7
Shahrixon	2 005,8	3,7	116,8
Paxtaobod	1 401,0	2,6	116,4
Xo'jaobod	1 784,8	3,3	116,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2025- yilning yanvar–dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Andijon shahridan tashqari viloyatning boshqa hududlarida, xususan, Jalaquduq (**118,6 %**), Izboskan (**118,5 %**), Xonobod sh (**118,0 %**), Bo'ston (**117,5 %**), Andijon (**117,3 %**) va Shahrixon tumanlarida (**116,8 %**) kuzatildi.

Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Baliqchi tumanida (**115,0 %**) qayd etildi.

2025- yilning yanvar–dekabr oylarida Andijon viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **15 457,9** ming so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davridagi (**12 612,8** ming so'm) ko'rsatkichga nisbatan **2 845,0** ming so'mga, ya'ni **12,6 %**ga o'sish qayd etildi.

Hududlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichi Andijon shahriga to'g'ri kelib, **26 793,7** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **5 393,6** ming so'mga (**16,1 %**) oshdi. Shuningdek, nisbatan yuqori hajmni Xonobod shahar (**18 872,4** ming so'm) va Xo'jaobod (**14 463,8** ming so'm) tumani egalladi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Shahrixon tumanida (**6000,0** ming so'm) qayd etildi.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari**
2025- yil yanvar–dekabr

	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	15 457,9	112,6
shahar va tumanlar:		
Andijon sh.	26 793,7	116,1
Xonobod sh.	18 872,4	116,5
Oltinko'l	7 714,1	114,9
Andijon	7 341,0	114,8
Baliqchi	8 500,8	112,9
Bo'ston	7 278,3	115,0
Buloqboshi	6 979,0	113,7
Jalaquduq	7 795,0	116,8
Izboskan	6 665,5	116,3
Ulug'nor	7 752,9	115,4
Qo'rg'ontepa	7 263,5	114,8
Asaka	6 783,8	113,9
Marhamat	7 399,9	113,6
Shahrixon	6 000,0	114,6
Paxtaobod	6 534,6	114,4
Xo'jaobod	14 463,8	114,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

Eng yuqori o'sish sur'ati Jalaquduq tumanida (**116,8 %**), Xonobod shahar (**116,5 %**), Izboskan (**116,3 %**), Andijon shahar (**116,1 %**), Ulug'nor (**115,4 %**), Bo'ston (**115,0 %**), shuningdek, Oltinko'l (**114,9 %**) tumanlari va shaharlarda qayd etildi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **39 288,4** mlrd so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **72,8 %**ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda **11,7 %**ga o'sish kuzatildi.

Hududlar orasida kichik biznesning xizmatlar hajmidagi eng yuqori ulushi Baliqchi (**84,1 %**), Marhamat (**77,7 %**), Jalaquduq (**67,9 %**), Paxtaobod (**66,2 %**) hamda Qo'rg'ontepa (**65,2 %**) tumanlarida kuzatilmoqda. Ushbu tumanlarda bozor xizmatlari asosan kichik tadbirkorlik subyektlariga tayanadi. Shu bois u yanada moslashuvchan, biroq qonunchilikdagi o'zgarishlar va moliyalashtirish imkoniyatlariga nisbatan sezgirroq bo'ladi.

Andijon shahrida kichik tadbirkorlikning ulushi nisbatan past (**61,6 %**) bo'lishiga qaramay, kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi viloyat bo'yicha eng yuqori bo'lib, **8 215,9** mlrd so'mni tashkil etdi.

Xonobod shahar, Bo'ston va Ulug'nor tumanlari kabi qator hududlarda kichik tadbirkorlikning ulushi biroz pastroq. Xonobod shahrida kichik tadbirkorlik tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **480,8** mlrd so'mni, Bo'ston tumanida **327,5** mlrd so'mni, Ulug'nor tumanida esa **304,4** mlrd so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari

2025- yil yanvar-dekabr

	Hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmdagi Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	30 289,3	72,2	111,7
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	8 215,9	61,8	111,3
Xonobod sh.	480,8	54,1	114,9
Oltinko'l	934,6	65,1	112,7
Andijon	1 284,8	59,3	113,4
Baliqchi	1 587,6	80,7	113,0
Bo'ston	327,5	58,6	112,9
Buloqboshi	676,6	58,9	112,1
Jalaquduq	1 076,8	70,4	119,0
Izboskan	1 073,2	62,5	119,5
Ulug'nor	304,4	61,0	112,3
Qo'rg'ontepa	1 118,6	63,5	112,6
Asaka	1 408,1	58,2	111,7
Marhamat	1 101,6	76,5	113,8
Shahrixon	1 254,5	63,1	113,1
Paxtaobod	927,9	63,0	112,1
Xo'jaobod	1 020,2	55,6	113,0

III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilning 27-fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan va ularni monitoring qilish ko'zda tutilgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga moliyaviy xizmatlar (**42,0** %ga; umumiy o'sishga **6,5** foiz band hissa qo'shdi), transport xizmatlari (**12,0** %ga; **1,8** f.b.), savdo xizmatlari (**8,6** %ga; **1,6** f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**9,3** %ga; **2,5** f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**15,1** %ga; **0,5** f.b.), boshqa xizmatlar (**16,0** %ga; **0,5** f.b.), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**17,0** %ga; **0,3** f.b.) shuningdek ijara xizmatlari (**21,3** %ga; **0,3** f.b.) va ta'lim sohasidagi xizmatlarning (**4,9** %ga; **0,2** f.b.) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (**11,1** %ga) va shaxsiy xizmatlar (**10,9** %ga) o'sib, **0,5** foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **28,1** %, transport xizmatlari **15,9** %, savdo



xizmatlari **19,2 %**, moliyaviy xizmatlar **16,2 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,3 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,5 %** ulushni egalladi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
yanvar–dekabr

	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	43 233,1	53 969,6	114,7
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 410,2	1 797,7	115,1
moliyaviy xizmatlar	6 086,1	8 737,4	142,0
transport xizmatlari	6 751,5	8 589,6	112,0
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	6 127,1	7 739,5	110,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	12 470,2	15 147,3	109,3
savdo xizmatlari	9 002,8	10 346,7	108,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	708,9	908,7	109,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 573,6	1 894,3	104,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	717,3	884,8	117,0
ijara xizmatlari	579,1	761,3	121,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	832,4	987,4	111,1
shaxsiy xizmatlar	1 452,5	1 832,8	110,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	253,9	259,4	94,2
boshqa xizmatlar	1 394,5	1 822,3	116,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2024- yilning yanvar–dekabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **2 677,1** mlrd so'mga oshib, **15 147,3** mlrd so'mni tashkil etdi. Uning o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, mazkur xizmatlar ulushi **99,1 %** darajasida qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi tarkibi
2025- yil yanvar–dekabr

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari


Yashash xizmatlari



2025- yilning yanvar–dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi **8 589,6** mlrd so'mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **90,1** %.

Transport xizmatlari hajmining o'sishi ichki va tashqi savdo faoliyati, logistika, turizm hamda elektron tijoratning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu yuk va yo'lovchilar tashishga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi.

Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi
2025– yil yanvar–dekabr



2024- yilning yanvar–dekabr oylariga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda savdo xizmatlari hajmi **1 343,9** mlrd so'mga oshib, **10 346,7** mlrd so'mni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **72,2** %ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **14,6** %ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **13,2** %ni tashkil etdi.


2024- yilning mos davriga nisbatan 2025- yilning yanvar–dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **2 651,3** mlrd so'mga oshib, **8 737,4** mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **42,0** %ga o'sdi.

2025- yilning yanvar–dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar ulushi **81,2** %ni tashkil etdi. Sug'urtalash bo'yicha xizmatlarning ulushi **1,9** % darajasida qayd etildi. Yordamchi moliyaviy xizmatlar esa **16,9** %ni tashkil etdi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **1 797,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur tarmoqdagi eng katta ulushni kompyuter dasturlashtirish xizmatlari (**79,9** %) egalladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi

2025- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda



Bu sohada dasturlashtirishning yuqori ulushi yangi AT-klasterni paydo bo'layotganini ko'rsatadi. U qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi va eksport imkoniyatlarini oshiradi, ayniqsa outsorsing va dasturiy ta'minot ishlab chiqishga hissa qo'shadi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 894,3** mlrd so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **64,8** %ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**908,7** mlrd so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **99,8** % darajasida qayd etildi.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **884,8** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati **117,0** % ni tashkil etgan.

Ijara xizmatlari umumiy hajmidagi (**761,3** mlrd so'm) eng katta ulush yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlariga to'g'ri kelib, **81,3** %ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**da ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlar bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinishi uchun, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi, real oldi-sotdi obyekti bo'lishi, narxi ishlab chiquvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), shartnoma narxlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan to'lov kunida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST (Milliy statistik tasniflagich) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi

Manzil: 170100, Andijon sh.,
Milliy tiklanish ko'chasi, 36-“A” uy,
Pochta: info@andstat.uz
Tel.: 74-224-80-00

